O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
FARG'ONA VILOYATI
BOSHQARMASI

150115 Farg'ona shahri, Al-Farg'oniy 36-uy, Tel/Faks: 71-203-11-48, E-mail: fergexp@rambler.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Mukaramov Doniyor Mutalibovich

Sana: 05-02-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

229980 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahri, Olmazor tumanida joylashgan Toshkent viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi maxsus tibbiyot bazasining bo‘sh yer maydonida yangi 540 o‘rinli maktabgacha ta’lim tashkilotini qurish	
Buyurtmachi:	INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH INJINIRING KOMPANIYASI DM
Bosh loyihachi:	"INTER ACTIVE-TEAMS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Davlat byudjed mablag'lari
Bosh pudratchi:	Shaffof qurilish milliy axborot tizimi orqali aniqlanadi.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	045876

1. Loyihalash uchun asos.

1.1 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil, 30 iyuldagi № 460/34-F sonli qarori.

1.2 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil, 16 sentabrdagi № 96- sonli rayosati majlisining bayoni.

1.3 Olmazor tumani qurilish bo‘limi boshlig‘ining 2024 yil 9 oktabrdagi 151833629-sonli ruxsatnomasi.

1.4 Arxitektura va Qurilish boshqarmasi tomonidan 2024-10-15 dagi 1726-1726280-201863-sonli arxitektura va rejalashtirish topshirig‘i.

1.5. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi “Infratuzilmani rivojlantirish injiniring kompaniyasi” DM bosh direktori I.D.Djuraev tomonidan tasdiqlangan, Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi boshlig’i A.O.Xudaynazarov bilan kelishilgan, Toshkent shahar Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig’i N.Q.Husanboeva bilan kelishilgan loyiha topshirig’i.

1.6. «O’ZGSHKLITI» M.CH.J. tomonidan berilgan obyektning muhandislik geologiya xulosasi.№ 28/6-18773

1.7. Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rib chiqilgan va kelishilgan:

-Toshkent shaxar Qurilish bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2024-01-03 dagi 164099571-sonli xulosasi.

1.8. Muhandislik tarmoqlariga ulanishning texnik shartlari, muhandislik tarmoqlarini nazorat qiluvchi va foydalanuvchi manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilgan.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra «ishchi loyiha» ning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.

2.2. Konstruktiv hisoblar.

2.3. “INTER ACTIVE-TEAMS” MChJ tomonidan 2024-yilda ishlab chiqilgan energetik pasport.

2.4. “INTER ACTIVE-TEAMS” MChJ tomonidan 2024-yilda ishlab chiqilgan teplotexnik hisob.

2.5. Umumiy tushuntirish xati.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma’lumotlari.

Normativ shamol bosimi - W_o = 0,38 kPa.

Normativ qor qatlami vazni - S_n = 0,50 kPa.

Hisobiy zilzilabardoshlik 9 ball.

Muhandis-geologik tadqiqotlarga ko‘ra binoga asos bo‘lib IGE-2 gruntlari xizmat qiladi.

IGE-2 – toshlar qum bilan to'ldirilgan, suv bilan to'yingan. Cho'kindi va magmatik jinslardan tashkil topgan toshlar. Element quvvati 8.6-8.4 m

Gruntning cho‘kuvchanligi – II (ikkinchi);

Tuproq suvlari yer sathidan 10 m chuqurlikda joylashgan;

Tuproqning muzlash chuqurligi – 0.7 m;

“Toshkent shahar, Olmazor tumanida joylashgan Toshkent viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi maxsus tibbiyot bazasining bo‘sh yer maydonida yangi 540 o‘rinli maktabgacha ta’lim tashkilotini qurish” quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:asosiy MTT binosi, tashqi bolalar ayvonchalari, tashqi bolalar cho’milish havzalari, tashqi xojatxona va bolalar kiyim almashtirish xonasi, kirish nazorat posti, yong’inga qarshi suv gidranti, chiqindilarni yig’ish xonalari va boshqalar.

Rejalashtirilgan joylashuv o’rni shimoliy va shimoli-sharqiy tomonlaridan yo’l orqali aholi turar joylaridan ajralib turadi. G`arb tomondan Toshkent viloyati sog‘likni saqlash boshqarmasi maxsus tibbiyot bazasi hovli devori orqali ajralib turadi. Janub tomondan hovli devor bilan aholi xonadonlaridan ajralib turadi. Arxitektura va rejalashtirish kompozitsiyasining asosi sifatida Bosh rejada, asosiy bino, qo’shimcha bino va inshootlar, yurish yo‘lagi va yashil maydonchalar rejalashtirilgan. Bino hududi metall va beton devorlar bilan o‘ralgan. Yo‘llar va yo‘laklar beton qoplamalar bilan qoplangan.

Hudud va hududda joylashgan bino va inshootlarning hajmi quyidagi tartibda taqsimlangan:

- Bino hududining umumiy maydoni –8000.0 m2
- ja’mi qurilish osti maydoni –2100.0m2;
- ja’mi obodonlashtiriladigan, ko’kalamzorlashtiriladigan hudud, yo`laklar va yo`llar maydoni – 5900.0m2; Ga;

Chiqindilarni yig‘ish joyi chiqindilarni qulay tarzda yig‘ish va olib ketishni ta’minlaydi.

Yomg‘ir va qor suvlarini drenajlash uchun ushbu loyihada ЛИ-50.4.4 / 3 temir-beton ariqlari(лоток) qabul qilingan. Yomg‘ir va qor suvlari tarmoqlarining yo‘l bilan kesishgan joylarida, QMQ 2.06.03-97 ga binoan, shuningdek, ish sharoitlariga asoslanib, yukli transport vositalari yura olishiga mo‘ljallangan D-273 mm bo‘lgan po‘lat quvurlar ko‘zda tutilgan.

3.2.Arxitektura – rejalashtirish yechimlari.

- Yangi qurilayotgan bino yerto'lasiz, uch qavatli asosiy va bir qavatli oshxona binosidan iborat bo'lib, krilcha Г ko’rinishdagi shaklga ega, umumiy tarx o`lchami 47.7 m x47.7 m.

Bino birinchi qavatida:Tambur, vestibyul, riyim almashtirish, guruh xonalari, hojatxonalar, tibbiyot xonasi, psixolog xonasi, umumiy ovqatlanish zali, oshxona, tayyorlov xonasi, o'tish yo'lagi, elektr ta'minoti, dahliz, yo'lak, ombor, xodimlar xonasi, yuvinish xonasi, dush, sanuzellar, kir yuvish xonasi, kirish tuguni, nasos xonasi va boshqalar.

Bino ikkinchi qavatda; Zina, xoll, kiyim almashtirish xonasi, guruh xonalari, yotoqxona, logoped xonasi, yuvinish xonasi, sanuzellar, yordamchi xonalar, hamshira xonasi, muolaja xonasi, dahliz, psixolog xonasi, musiqiy mashg'ulot xonasi va boshqalar.

Bino uchinchi qavatda; Kiyim almashtirish, guruh xonalari, hojatxonalar, universal zal va boshqalar.

Binoning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari quyidagicha:

Bog`cha binosi.

1 Qurilish maydoni.....1613.5 m2

2 Umumiy maydoni.....3743.4 m2

3 Qurilish hajmi.....15270 m3

- Qavatlar balandligi - 3.3m dan iborat;
- Asosiy bog'cha binosi chordoqli, oshxona binosi tekis tomli;
- Bino aralash tizimli bo'lib, poydevori 400 mm, tashqi devorlari 380 mm;
- Orayopmalari temirbeton plitalardan iborat;
- Pollar: Marmar, relin va keramik plitkalardan;
- Eshiklar: yong'inga qarshi metall eshiklar, MDf va alyuminiy profilli ashyolardan;
- Deraza romlari: PVX xomashyosidan;
- Pardevorlar: GKL (C112) va g'isht 120-250mm;
- Shiftlar: Oq suvoq va PVX ashyolardan foydalanilgan;
- Devorlarni ichki pardozlash ishlarida xonalarning vazifasi va texnologik jarayonlar hisobga olingan: Yaxshilangan suvoq, gips asosli quruq aralashma, shpaklevka, suv asosli bo'yoq, moy asosli bo'yoq, ikki qatlamli GKL varaqli qoplama va sirlangan keramik plitkalar ishlatilgan;
- Tarzni pardozlashda sifatli va uzoq muddat o'z xususiyatini yo'qotmaydigan ashyolardan foydalanilgan;
- Poypesh: yaltiroq sirtli marmarni qorishma bilan biriktirilgan;

3.3. Konstruktiv yechimlari.

-Yangi loyihalanayotgan binoning konstruktiv sxema – devorlari 380 mm qalinlikdagi pishgan g‘isht materialidan bo‘lgan va temir beton o‘zaklari bilan kuchaytirilgan kompleks konstruksiyali;

- Konstruktiv sistema (barcha bloklar uchun) - (1.2.2. Yaxlit temirbeton karkaslar, jumladan, yig'ma orayopmalar: ж) II tur seysmik yuklarni qabul qiluvchi to"ldiruvchili (tosh bloklar, g`ishtlar) karkaslar) jadval.3.1 QMQ 2.01.03-19 "Zilzilaviy hududlarda qurilish");

Har bir zina marshi balandligi 1650 mm ga ko'tariladi. Metall tutqichlar bilan jihozlangan.

Gruntlar xossalari umumiy holda olingan. Asosiy yer ishlari binoni joyiga bog‘lash davrida amalga oshiriladi.

Bino 9 ballik zilzilaga xisoblangan.

poydevorlari–tasmasimon: quyma temir beton – B15.

-ustun (kolonna)lari quyma temirbeton–B25. Ishchi sterjenlarning himoya qatlami 40mm (sterjen markazidan);

-to‘sin (rigel)lari quyma temirbeton – B25. Ishchi sterjenlarning himoya qatlami 40mm (sterjen markazidan);

-devorlar–pishiq g’ishtdan tashqi devor qalinligi t=380 mm, ichki devorlar–qalinligi 120mmlik -gishtli va 120 mm lik gazablok;

-sarbasta (peremьichka) – quyma temirbeton;

Uch qavatli bogcha binosining tom qismi yog`och konstruksiya.

Bir qavatli bog`cha binosining tom qismi tekis tom.

3.4. Yong‘in xavfsizligi.

Konstruktiv yong‘in xavfi turi –CO;

Funksional yong‘in xavfi turi –F1.1;

Yong‘inga qarshiligi – I toifa;

Bino avtomobil yo‘llari va rejalashtirilgan hudud bo‘ylab o‘t o‘chirish mashinalari uchun yong‘inga qarshi yo‘l bilan ta’minlangan. Barcha yong‘in gidrantlarga o‘t o‘chirish mashinalariga kirish imkoniyatiga ega. Binolar asosiy yong‘inga qarshi uskunalar bilan jihozlangan.

- Favqulodda evakuasiya choralari ShNQ 2.01.02-04 "Bino va inshootlarning yong'in xavfsizligi" talablariga mos holda olib borilgan.

3.5. Energiya tejamkorlik.

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

zichligi γ=120÷140 kg/m3, qalinligi 50 mm bo‘lgan bazalt plitalardan devor termoizolyatsiyasi bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);

– tomda 60 dona quyosh panellari, 10 dona quyosh kollektorlari va issiq suv ta’minoti uchun issiqlikni akkumulyatsiyalovchi qo‘shimcha energiya to‘plagich idishlar (boylerlar) o‘rnatilgan;

– FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan va b.

– yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan va b.

– yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. TOSHKENT HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI KORXONASI” AJ tomonidan 05.12.2024 yil 05-2879 - sonli texnik sharti.

4.2. Toshkent shahar suv ta’minoti AJ tomonidan 06.12.2024 yil 270/4-5608- sonli texnik sharti.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Davlat Ekologik ekspertizasi Toshkent shahar filialining 2024-yil 17 dekabrdagi 01-02/14-3212-sonli ijobiy xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **16 521 560 343** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

1 860 379 519 so'mga oshirilib, **18 381 939 862** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **15 064 231 099** so'm

Asbob-uskunalar: **1 348 215** so'm

QQS: **1 969 493 556** so'm

6.1.Ekspertiza jarayonida mutaxasislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

6.2.Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining texnologik, ichki muhandislik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari izoxlarsiz taqdim etilgan.

6.3.Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izoxlariga muvofiq kiritilgan kamchiliklar va tuzatishlar loyihachi tomonidan ko‘rib chiqildi va tuzatildi. (Biriktirilgan lokal ekspertiza xulosalaridagi faylda batafsil ko‘rsatib o‘tilgan).

6.4. Mutaxassis tasdiqlangan ishchi loyihaning smeta hujjatlarini ko‘rib chiqdi. Xarajatlar darajasi tekshirildi: ish haqi, mashina va mexanizmlarning ishlashi, asosiy qurilish materiallari ShNQ 4.02.00-05 normalariga muvofiq.

“Uslubiy tavsiyalar” va ShNQ 4.01.16-09 asosida amalga oshirilgan obyekt narxi amaldagi narxlarda aniqlash hisob kitobi asosida ko‘rib chiqildi.

Buyurtmachi jami xarajati, obyektning materiallar qiymati, ish xaqqi 42 072,72 sum/chelchas (ijtimoyi sug’urta siz) va pudratchining boshqa xarajatlari 17,27% buyurtmachi xatiga asosan qabul qilindi.

Taqdim e’tilgan ishchi loyixa bo’yicha qurilish ishlarining smeta qiymati QQS bilan 16 521 560,343 ming so’mni tashkil qilgan bo’lib ekspertiza natijasiga ko’ra qiymati 1 860 379, 519 ming som miqdorida qiymatlashib buyurtmachining boshqa xarajatlari siz 18 381 939 .862 ming so’m tasdiqlash uchun tavsiya e’tildi, jumladan:

- QQS 12 %- 1 969 493, 556 ming sum.
- Ob’yektning 12% QQSsiz va buyurtmachi xarajatlarisiz joriy narxlardagi qiymati 16 412 446,306 ming som.

-Qurilish-montaj ishlari: - 15 064 231,099 ming so'm

-Asbob-uskunalar: - 1 348 215. 207 ming so'm

Qurilish tannarxini oshib ketishi loiyxachi xatida kursatilib utilgan

- Ob’yektning pudrat tashkiloti tomonidan bajariladigan qurilish-montaj ishlari qiymati 12% QQS bilan . buyurtmachi tomonidan markazlashtirilgan tartibda yetkazib beriladigan materiallar, jihozlar va buyurtmachi xarajatlarisiz (tender savdolari tavsiyaviy boshlangich qiymati)- 9 164 931 .995 ming som.
- Obyektning pudrat tashkiloti tomonidan bajariladigan qurilish-montaj ishlari qiymati 12% QQSsiz . buyurtmachi tomonidan markazlashtirilgan tartibda yetkazib beriladigan materiallar va buyurtmachi xarajatlarisiz (tender savdolari tavsiyaviy boshlangich qiymati)- 8 182 974 .996 ming som.
- buyurtmachi tomonidan markazlashtirilgan tartibda yetkazib beriladigan materiallar qiymati (yetkazib berish transport harajatlari bilan) 12% QQS bilan - 9 217 007 .866 ming so’m.
- buyurtmachi tomonidan markazlashtirilgan tartibda yetkazib beriladigan materiallar qiymati (yetkazib berish transport harajatlari bilan) 12% QQS siz - 8 229 471 .309 ming so’m

6.5.Import qilingan uskunalar va materiallarning narxi ekspertiza tomonidan ko‘rib chiqilmagan.

6.6.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi №579-sonli qarori 1-ilova, III bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.7.Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va SHNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o‘tkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

6.8.Ko‘rsatilgan narxni tanlov savdolari uchun qabul qilish to‘g‘risida buyurtmachi qaror qabul qiladi

7. Xulosalar.

7.1. Toshkent shahri, Olmazor tumanida joylashgan Toshkent viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi maxsus tibbiyot bazasining bo‘sh yer maydonida yangi 540 o‘rinli maktabgacha ta’lim tashkilotini qurish, loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqib, tasdiqlashga tavsiya etiladi.

7.2. ShNK 1.03.06-2013 42-bandiga asosan amal qilish muddati 2 yil.

Bosh ekspert: Islamov Bekzod Ravshan O‘g‘li.
Ishtirokchi ekspertlar: Bannobov Abrorjon Bahodir O‘g‘li, Karimov Nizomjon Boboxanovich, Mirzakarimov Akmal Abdillajanovich, Askarova Malika Maxmudovna, Djalilov Muradjan Maxmudjanovich, Islamov Bekzod Ravshan O‘g‘li, Rozikov Xasanjon Xoshimovich, Valijonov Abdulatif Abduraxim O‘g‘li